Asian Journal of Technology and Applied Sciences
ISSN: 2301-xxxx (online) | IF: 10.01 | Vol: 1, issue 1
Available: http://asiansciencejournal.org

MUSTAQILLIK DAVRI BOLALAR SHE'RIYATIDA NOVATORLIK JARAYONLARI

Ruzimatova Gulzoda Sharipovna
UrDU
Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasi o`qituvchisi

Bolalar adabiyoti, aytganimizdek, yengil adabiyot emas. Bolalar adabiyoti – bu adabiyotning boshlanish, adabiyotning tug‘ilish nuqtasidir. Chunki adabiyotga mehr aynan shu davrda boshlanadi, obrazli tafakkur, poetik tasavvur uchun aynan shu davr motivatsiya beradi, adabiy-badiiy qarashlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Bu o‘z navbatida, ijodkordan shunchaki ma`naviy-ma`rifiy qarashlar singdirilgan fikrlar majmuyini emas, balki unga badiiy asar huquqini beruvchi eng asosiy jihat, ya`ni badiiylik, badiiy mahorat bilan yondashishni talab qiladi. Zero, “Badiiylik adabiy asar uchun ilova yoxud qo‘shimcha emas, balki asarning shunday zaruriy shartiki, u asarni san`at olamiga olib kiradi, uning badiiy asar deb atalishiga huquq beradi. Ana shu badiiylik tufayli asarning g‘oyaviy kuchi namoyon bo‘ladi” . O‘zbek bolalar adabiyoti, xususan, bolalar she’riyati xalq og‘zaki ijodi, milliy adabiyot va zamonaviy ijodkorlar tajribasi asosida shakllanib, o‘ziga xos badiiy an’analarga ega. Har bir davrda yangi g‘oyalar, yangicha obrazlar, tildagi yangilanishlar — novatorlik unsurlari sifatida adabiyot rivojiga turtki bo‘lib kelmoqda. O‘zbek bolalar she’riyati xalq og‘zaki ijodi, milliy adabiyot va jahon bolalar adabiyoti tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Har qanday milliy adabiyotda bo‘lgani kabi, bolalar ijodiyotida ham an’ana va novatorlik dialektik munosabatda kechadi. An’ana — adabiyotning genetik xotirasi, milliy ruhning uzluksizligi bo‘lsa, novatorlik — shu xotiraning zamon bilan hamnafas tarzda yangilanishidir. Adabiyotshunos olimlar (A.Qahhorova, O.Sharafiddinov, N.Karimov, M.Qo‘shjonov va boshqalar) ta’kidlaganidek, har bir yangi davr o‘z estetik talablari, badiiy qidiruvlari bilan adabiy jarayonga kirib keladi. Shu jarayonda an’ana yangicha talqin qilinadi, badiiy shakl va g‘oya tizimida o‘zgarishlar yuz beradi. Bolalar she’riyati ham bu jarayondan mustasno emas. Har qanday milliy adabiyotda an’ana va novatorlik munosabati badiiy taraqqiyotning asosiy qonuniyatidir. An’ana — bu xalqning tarixiy estetik xotirasi, madaniy merosi, adabiy tafakkurda davomiylikni ta’minlovchi omildir. Novatorlik esa shu merosga tayanib, yangi badiiy shakl, g‘oya va estetik yo‘nalishlarni yaratish jarayonidir.

Adabiyotshunos olimlar (O.Sharafiddinov, N.Karimov, A.Qahhorova, B.Yo‘ldoshev) ta’kidlaganidek, adabiy jarayonning har bir bosqichida yangilanish aynan an’anaviy tajriba bilan dialektik uyg‘unlikda kechadi. Shu ma’noda o‘zbek bolalar she’riyati ham xalq og‘zaki ijodi an’analariga tayangan holda, yangi ijtimoiy mazmun va poetik shakllarni o‘zlashtirib bordi.

Bugungi kunda o‘zbek bolalar adabiyoti, xususan, she’riyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillik, globallashuv, raqamli davr, ekologik muammolar — bularning barchasi bolalar adabiyoti mazmunini boyitdi. Shu jarayonda zamonaviy novatorlik badiiy tafakkurning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bu novatorlik o‘z ifodasini ham poetik shaklda, ham mazmuniy yo‘nalishda topmoqda. Bolalar she’riyati inson ruhiyati, estetik didi va axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu adabiyotning o‘ziga xosligi shundaki, u bolalar uchun oson tushunarli til va ritmik shakllardan foydalangan holda tarbiyaviy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarni yetkazadi. So‘nggi yillarda bolalar she’riyatida bu ikki muhim yo‘nalish bir-biri bilan uyg‘unlashmoqda:

Asian Journal of Technology and Applied Sciences
ISSN: 2301-xxxx (online) | IF: 10.01 | Vol: 1, issue 1
Available: http://asiansciencejournal.org

1. An’ana — milliy qadriyatlar, ona tili, xalqona obrazlar, tarixiy qahramonlar va folklor.

2. Novatorlik — zamonaviy dunyoqarash, global qadriyatlar, yangi mavzular va she’riy shakllar.

Mustaqillik davrida o‘zbek bolalar she’riyati mazmun va shakl jihatidan sezilarli darajada yangilandi. Endilikda bola — shunchaki tarbiya obyekti emas, balki mustaqil fikrlovchi, orzu qiluvchi, his qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanmoqda. Shoirlar bola qalbining ichki kechinmalarini, tabiatga, ota-onaga, Vatanga munosabatini samimiy lirik ohangda ifodalay boshladilar. Zamonaviy ijodkorlar — Halima Ahmedova, Xurshid Davron, Ulfat Mo‘min, Miraziz A’zam, Zulfiyaxonim, G‘ayrat Majid, Anvar Obidjon singari shoirlar bolalar she’riyatiga yangicha badiiy nigoh olib kirdilar. Ularning ijodida metaforik obrazlar, o‘yinli shakllar, yangi so‘z boyligi, erkin qofiya tizimi paydo bo‘ldi. Novatorlik — bu an’anani inkor etish emas, balki uni zamonaviy g‘oya va badiiy shakl bilan yangilashdir. Bolalar adabiyotida bu tushuncha o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Chunki bola auditoriyasi o‘zgaruvchan, axborotli, hissiy jihatdan nozik bo‘lgan zamonda ijodkor nafaqat badiiy, balki psixologik novator bo‘lishi kerak. O‘zbek bolalar she’riyatida novatorlikning ilk ko‘rinishlari XX asr o‘rtalaridan boshlangan bo‘lsa-da, mustaqillikdan keyingi davrda bu jarayon chuqurlashdi. Endi bola dunyosi — o‘z orzu va kechinmalari bilan mustaqil badiiy obyekt sifatida tasvirlanmoqda. Mustaqillikdan keyingi yillarda bolalar she’riyatida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda erkin fikr, tabiatga, insonparvarlikka e’tibor kuchaydi. She’rlarda bola dunyoqarashi, ichki kechinmalari chuqurroq ifodalanmoqda. Shuningdek, zamonaviy bolalar she’riyatida ekologik tarbiya, tabiatga mehr, ilm-fan va texnologiya mavzulari keng o‘rin olmoqda. Qofiyasiz (erkin) she’rlar, lirik monolog, o‘yinli shakllar paydo bo‘ldi. Zamonaviy so‘z boyligi, texnologiyalar, yangi realiyalar she’rlarga kirib keldi (masalan: telefon, internet, raketa, robot kabi obrazlar). Tabiat muhofazasi, ekologiya, do‘stlik, tinchlik, mehr, vatanparvarlik — zamonaviy tahlilda talqin qilinmoqda. Bola — faqat tinglovchi yoki o‘rganuvchi emas, balki fikrlovchi, his qiluvchi, orzu qiluvchi obraz sifatida ko‘rsatiladi. Bu hol novatorlikning mazmuniy ko‘rinishi sifatida baholanadi. 1991- yildan keyingi adabiy jarayonda bolalar she’riyati erkinlik, individuallik va milliylik g‘oyalari asosida yangilandi. Endi bola shunchaki tarbiya obyekti emas, balki fikrlovchi, his qiluvchi, orzu qiluvchi shaxs sifatida ko‘rsatilmoqda. Zamonaviy o‘zbek bolalar she’riyatida novatorlikning eng muhim belgilaridan biri — bola tafakkuriga mos badiiy shaklni topish jarayonidir. Bunda shoir bola psixologiyasini chuqur his etadi, u dunyoni qanday ko‘rsa, shunday ko‘rsatadi. Shakl, ritm, obraz va g‘oya — bularning barchasi bolaning tabiiy idrok jarayoniga moslashtiriladi. Bolalar uchun yozilgan she’rlar endi faqat “axloqiy o‘git” emas, balki bolaning ichki olamini aks ettiruvchi poetik laboratoriya sifatida qaralmoqda. Quyida ayrim zamonaviy shoirlarning asarlari tahlili orqali bu holat yoritiladi.

Rustam Nazarning “Rangli favvora”, “Yerdagi quyosh”, Ollabergan Po‘latning “Yulduzlar jamoli”, “Qo‘shig‘imsiz bolalar”, Erpo‘lat Baxtning “Shodlik hidi” kabi to‘plamlaridagi she`rlar bolalik olamini majoziy, poetik obrazlar orqali kashf qilishning o‘ziga xos namunalaridir. “Daryo ko‘ngil” kitobidagi bitiklar esa kattalarni ham mushohadaga undaydi. Ollabergan Po‘latning “Gujum”, “Kungaboqar”, “Tuyaqush”, “Bug‘doydonman” kabi she`rlari shu jihatlar bilan xarakterlidir. Bu she`rlarda ijtimoiy mazmun bilan badiiy-estetik talqin uyg‘unlashib ketgan. Shoir she`rlarida shakl ijtimoiy mazmunning estetik ta`sirchanligini hosil qiluvchi vosita vazifasini o‘taydi. Jumladan, shoir kungaboqarning osmonga qarab turishida muhim ijtimoiy-ma`rifiy mazmun topadi, uning poetik talqiniga ko‘ra, kungaboqar o`z boshidan juda ko‘p jabr-u jafolarni, sitamlarni kechirgan, ko‘ngli o‘ksik. Natijada, u quyosh bo‘lmasa ham shaklan unga o‘hshab qoladi.

Asian Journal of Technology and Applied Sciences
ISSN: 2301-xxxx (online) | IF: 10.01 | Vol: 1, issue 1
Available: http://asiansciencejournal.org

Yuksakka intilib, niyatiga yetadi. Bunday timsol o‘zbek adabiyotida kuzatilmagan bir hodisadir. Bu jihat she`rning estetik ta`sir quvvatini oshirishga xizmat qilgan. Shoir she`rni quyidagi salmoqli mazmun singdirilgan ramziy-obrazli asarni go‘zal ifoda qilishga yordam bergan:

Intilgandan yuksakka,
Ha, orzusi ushaldi.
Quyosh bo‘la olmasa-da,
Quyoshga o‘xshab qoldi.

“Kungaboqar” she`rining badiiy-estetik kuch-qudrati, lirik qahramonning istak-tilaklari aks etgan xitoblarda mujassamlashgan. Zotan, murojaatda xalqona ruh va ohang bilan bir qatorda, jafokash elning o‘zligini anglashga bo‘lgan ichki bir da`vat aks etgan. “Tut” she`rida ham tut daraxtining shakliy ko‘rinishi botinida yashirin fidokorlik, odamlarning o`zaro munosabatidagi shafqatsizlik tasviri orqali katta ijtimoiy-estetik mazmun ifodalanganini ko‘ramiz.

Bu dalil ham mustaqillik davriga kelib, bolalar she`riyatiga “aldagani bola yaxshi” qabilida yengil-yelpi qaralmay, balki badiiy mazmun salmoqdorligi, estetik ta`sirchanlik, manzara va obrazlilikka katta e`tibor berilayotganini ko‘rsatadi. Erpo‘lat Baxtning “Ezgulik” she`rida ham belgi -shakl orqali poetik mazmunni ifodalashning o‘ziga xos namunasini ko‘rish mumkin. Odatda, o‘zbek xalqi haqida gap ketganda, “mehmondo‘st”, “bag‘rikeng”, “jo‘mard, yalangto‘sh” kabi sifatlashlar ishlatiladi. Shoir millatning ana shu fazilatlaridan kelib chiqib, she`rda o‘zbekning betakror siyrati – portretini jonli va jonsiz narsalar misolida tasvirlaydi. She`r mazmunidan o‘zbek kishisining eng xarakterli fazilatlaridan biri fidoyilik olqishlanadi. Misralar quyma, qofiyalar tabiiy, so‘zlar ohangdor ekani ham manzumaning o‘qishli, ta`sirchan chiqishini ta`minlagan muhim omillardir. Birinchi to‘rtlikda o‘zbek bolasi oqibatni hatto bulutdan ham o‘rganishi haqida gap ketadi, fidoyilikning poetiklashgan surat-u siyrati quyidagicha chiziladi:

Ezgu ish deb teraklar
Ko‘rk beradi har yonga.
Chopishsa ham ildizin
Ustun bo‘lar ayvonga.

Bu kabi samimiy va chin iftixor tuyg‘ulari singdirilgan tasvirlarni Rustam Nazar she`rlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Rustam Nazarning istiqlolning dastlabki yillarida chop etilgan “Rangli favvora” she`riy to‘plamiga kirgan ko‘pgina she`rlarida bolalik olamining turfa manzara-holatlari o‘zining jozibali ifodasini topganini ko‘ramiz. Shoir she`rlari o‘zining fikrchanligi, obrazlarining realistik mohiyati bilan e`tiborni tortadi. She`rlarda bolalarning orzu-intilishlari, iztirob-armonlari haqqoniy ifodasini topgan. “Sog‘inch” she`rida qahramon doim singlisi bilan janjallashadi, kelisha olmaydi, uning bir yoqlarga ketishini orzu qiladi. Ammo orzusi ushalganidan keyin o‘ylari xato ekanini tushunadi.

Lekin tezda zerikdim men,
O‘yinchoqlar tegdi jonga.
Yolg‘izlikdan bezib ketdim,
Sig‘may qoldim keng jahonga.

Shundan so‘ng bolakay o‘z xatosini anglab yetadi. Singlisini yaxshi ko‘rishini tushunadi.

“Afrika” she`rida esa, bolalarning sodda va beg‘ubor dunyosi bir bolakayning Afrika sayohatidan qaytgan amakisiga bergan kulgili savolida e`tiborni tortadi:

Ko‘rganim yo‘q hech qayerda

Asian Journal of Technology and Applied Sciences
ISSN: 2301-xxxx (online) | IF: 10.01 | Vol: 1, issue 1
Available: http://asiansciencejournal.org

Jarohatdan birorta izni.
Xavotirim ko‘chdi tilimga:
Yemadimi
Timsohlar sizni?

Ko`rinib turibdiki, shoir she`rlari go`dak kulgisi kabi samimiy, yosh bolaning xarxashasi kabi beg`ubordir. Buyuk qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov “Yuragida bolaligini saqlay olgan ijodkorgina iste`dodlidir”,- degan edi. Rustam Nazar she`rlarini o‘qir ekansiz, buyuk adibning yuqoridagi fikrlari beixtiyor xayolingizdan o‘tadi. Umuman, Rustam Nazar ijodiga xos yumoristik ohang so‘nggi davr bolalar she`riyatining ajralmas qismi sifatida adabiyotimiz tarixiga muhrlandi.

Shoirning “Hamyon” she`ri dardchil, fikrchan ruhni ifodalaydi. She`rda hayotiy voqea tasvirlanadi. Maktabdan kelarkan, qizchaning nigohi yo‘lak chetida yotgan hamyonga tushadi. Lekin tegmaydi: “Balki egasi qidirib yurgandir?” Uyda onasi jerkib beradi: “Esipast! Yugur, darrov olib kel”. Qiz borib qarasa, hamyon yo‘q. Bir tomondan u xursand bo‘ladi. Balki egasi olgandir. She`r quyidagi misra bilan yakunlanadi:

Ho‘ngrab-ho‘ngrab yig‘ladi qizcha, -
dilidagi armonlar yengdi.
Hamyon yotgan yo‘laklardan u
Sira-sira yurmaydi endi!

Mazkur she`rning mazmuni juda teran. Unda o‘zining samimiyligi va toza qalbi bilan insonlarga ziyon-zahmat yetkazishga vijdoni yo‘l qo‘ymagan qizchaning ahvoli o‘quvchini beixtiyor o‘yga toldiradi: ezgulik, yovuzlik,
vijdonlilik haqida mulohaza yuritishga undaydi. Shoir she`rda armonga
aylangan umidning dardchil poetik manzarasini realistik lavhalarda
tasvirlashga erishgan. Rustam Nazarning bu kabi she`rlari bolalar she`riyatida ham jiddiy, realistik va hatto fojeiy talqindagi asarlar ham yaratish mumkinligini ko‘rsatadi.

Mustaqillik davri o‘zbek bolalar she`riyatida ma`naviy qadriyatlarning realistik tasvirlari ishonarli, ta`sirchan ifodalarga ko‘chibgina qolmay, o‘zining mushohadaga chorlash ruhi bilan ham e`tiborga molikdir.

Erpo‘lat Baxtning bolaning realistik xarakterini yaratishda ularning fikrchanligi, topqirliklari, zukkoligi-yu, o‘ychanliklarini nazarda tutib, ko‘plab she`rlarida gohida quvnoq yumor, gohida kesatiq, kinoya kabi poetik ko‘chim va komiklik turlaridan barakali foydalanadi. Shu yaqin o‘tmish bolalar she`riyatida bolaning beg‘araz lirik tuyg‘ulari, o‘smirda shakllana boshlagan sevgi, muhabbat hislarining kurtaklari badiiy ifodaga ko‘chgan asarlar deyarli uchramaydi. Vaholanki, o‘smir yoshidagi bola qalbi ham sohir tuyg‘u-kechinma va hislarga boy bo‘ladi. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she`riyatida o‘smirlar tabiatining ana shu jihatlari ham mavzular rang-barangligini ta`minlashda, hissiy tafakkurini, hissiy aqlini, idrokini yangilashda muhim ahamiyat kasb etganiga guvohi bo‘lamiz.

Rustam Nazarning “Taqiq” she`rida o‘smirning televizordan sevishganlar haqidagi filmni tomosha qilayotgani bayon qilinadi: “Xilvat. Yigit bilan qiz // Shivirlashar: – Sevgilim!”. Bola voqealar davomini entikib kuzatadi: “Mana endi oshiqlar // O‘pishadi bearmon!” (“Yerdagi quyosh”, 101). Bola oshiq- ma`huqlarning diydorlashuv onlarini “entikib” tomosha qiladi va bu manzaradan “Nogoh menga kirar jon”,- deya o‘zining tuyog‘ularini oshkor aytadi. Bu holat o‘smir kayfiyat holatiga mos ekani bois uning e`tirofi ham g‘oyatda tabiiy qabul qilinadi.

Demak, bemalol aytish mumkinki, Rustam Nazar istiqlol davri bolalar she`riyatiga yangi mavzu va yangicha talqinlar olib kirgan.

Aslida-ku, bolalar adabiyoti uchun taqiqlangan mavzuning o‘zi yo‘q,

faqat ularni bolalar qalbiga, dunyoqarashiga mos ravishda ifodalash muhim. Jamiyatda yoki oiladagi ijtimoiy muammolar katta yoshdagilar qatori bolalar taqdiriga, ularning ong-u shuuriga ham ta`sir ko‘rsatadi. Ayonki, bu yoshda bolalar qalbida sevgi-muhabbat hislarining kurtak yozishi ham mana shu hayotiy, tabiiy o‘sish-ulg‘ayish, voyaga yetish jarayonida ro‘y beradi. “Tan olish kerak, kattalar haqida gap ketganda, ko‘pincha ular nuqul to‘g‘riso‘z, kichiklarga g‘amxo‘r, yaxshi tarbiyachilar sifatida ko‘rsatilar edi. Bunday qahramonlar xarakteri badiiy asoslab berilsa yaxshi, aks holda sirli kimsalar timsoliga aylanadilar. Aslida, kattalar bilan bolalar o‘rtasida Xitoy devori yo‘q. Ulardan birining dardi, shubhasiz, ikkinchisiga ham taalluqli”, - deb yozadi adabiyotshunos S.Matjon “Poklanish davri va bolalar adabiyoti” maqolasida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov N. Hamid Olimjonning poetik mahorati. –Toshkent, 1964. 44-45-betlar.
2.Рустам Назар. Рангли фаввора. Тошкент: Чўлпон, 1991, Б. 40.
2. Эрпўлат Б. Шодлик ҳиди. – Toshkent: Академнашр, 2011. - Б. 15.
3. Матжон С. Болалар олами. – Тошкент, 1989. – Б. 5.
4. Оллаберган Пўлат. Қўшиғимиз, болалар! – Toshkent: Sharq NMAK., 2013.– B.55.